

ISSN 2161-7812

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
АХВОРОТНОМАСИ



**ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

**SPECIAL ISSUE**

**Dedicated to**

**The 10<sup>th</sup> International  
Symposium On Important  
Problems of the Environmental  
Protection and Human Health**



**2023**

TASHKENT

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОғЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2023

2011 йилдан шунга қадар

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**АХБОРОТНОМАСИ**



**ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

SPECIAL ISSUE

Dedicated to

The 10<sup>th</sup> International Symposium  
On Important Problems of  
the Environmental Protection and Human Health

Tashkent



*Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе*

*редакционно-издательского отдела  
Ташкентской медицинской академии*

*Начальник отдела: М. Н. Аслонов*

*Редактор русского текста: О.А. Козлова*

*Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева*

*Редактор английского текста: А.Х. Жураев*

*Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева*

*Учредитель: Ташкентская медицинская академия*

*Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском  
управлении печати и информации*

*Регистрационное свидетельство 02-00128*

*Журнал внесен в список, утвержденный приказом №  
201/3 от 30 декабря 2013года*

*реестром ВАК в раздел медицинских наук*

*Рукописи, оформленные в соответствии  
с прилагаемыми правилами, просим направлять*

*по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,*

*Главный учебный корпус ТМА,*

*4-й этаж, комната 444.*

*Контактный телефон: 214 90 64*

*e-mail: rio-tma@mail.ru*

*rio@tma.uz*

*Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.*

*Гарнитура «Cambria».*

*Тираж 150.*

*Цена договорная.*

*Отпечатано на ризографе  
редакционно-издательского отдела ТМА.  
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.*

Вестник ТМА 2023  
**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**  
**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

**Члены редакционного совета**

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Axmadaliyeva N.O., Salomova F.I., Sadullayeva X.A., Esenbayeva R.M., Mirsagatova M.R. Xusniddinova M.S., Xolto'raeva Sh.J. UMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OVQATLANISH SIFATINI BAHOLASH	82
Iskandarova G.T., Shabonova D.B. FAOLLASHTIRILGAN UGLEROD YORDAMIDA SUVNI SORBSION TOZALASH	85
Niyazova O.A., Salomova F.I., Qurbankulov A.A. NAMANGAN VILOYATI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA 5-7 SINIF O'QUVCHILARINING DARS JADVALINI GIGIYENIK BAXOLASH	89
Rakhimov B.B., Salomova F.I. DEVELOPMENT OF AIR QUALITY MONITORING IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN ENVIRONMENTAL MANAGEMENT	92
Sadullayeva X.A., Salomova F.I., Sadirova M.K. OCHIQ SUV HAVZALARI IFLOSLANISHINING GIGIYENIK TAVSIFI	96
Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Imamova A.O. FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF A GROUP OF FREQUENTLY ILL CHILDREN IN PRESCHOOL ORGANIZATIONS	100
Toshmatova G., Nazarova N., Ismoilova Sh. TURLI OLIYGOHLARDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARNI OVQATLANISH SIFATINI TAHLILI VA UNING SALOMATLIKDAGI O'RNI	102
Toshmatova G.A., Sadullayeva U.S. BOLALARDA MIOPIYA KASALLIGINI KELIB CHIQUISHIDA IJTIMOY GIGIYENIK OMILLARNING AHAMIYATI VA UNING PROFILAKTIKASI	105
Xudoyberdiyeva M.T., Xomidova G.F. FARG'ONA VILOYATIDA 2021-2022-YILLARDA KASALXONA ICHI INFEKTSIYALARI EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI	108
Абдукадирова Л.К. ЗАМОНАВИЙ НУРЛАНИШ ДИАГНОСТИКАСИ БЎЛИМЛАРИДА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИНИНГ МЕХНАТ ШАРОИТЛАРИНИ ГИГИЕНИК ЖИХАТДАН ЎРГАНИБ БАХОЛАШ	112
Атаниязова Р.А., Мамажонов С.Ш. АНАЛИЗ ОБЩЕЙ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН, ТЕНДЕНЦИИ И ОТЛИЧИЯ ОТ РЕСПУБЛИКАНСКИХ ЗНАЧЕНИЙ	115
Нуралиев Н.А., Амоева М.О. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИЗУЧЕНИЯ И ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПАРАЗИТОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПРОБ ВОДЫ РЕКИ АМУДАРЬЯ	120
Ахмадалиева Н.О., Саломова Ф.И. ХАРАКТЕРИСТИКА СОЦИАЛЬНОГО ПОРТРЕТА СОВРЕМЕННЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	124
Ахмадуллина Х.М., Пономарева А.О. РОЛЬ ПСИХОГИГИЕНЫ В СОХРАНЕНИИ ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА	128
Жабытай Ж. Б. ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ДИАГНОСТИКИ ДЕФИЦИТА МАССЫ ТЕЛА СРЕДИ СТУДЕНТОВ МУА	131
Жумаева А.А. ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УСЛОВИЙ КОВРОВОТКАЧЕСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	134
Мустанов Ж.А., Мустанов А.Н., Расулов Ш.М. СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЗООНОЗТЕРИ ЛЕЙШМАНИОЗИНИНГ ТАРҚАЛГАНЛИГИ, ЭПИЗООТОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ, ДЕРАТИЗАЦИЯ ЧОРА – ТАДБИРЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ	138
Нуралиев Ф.Н., Азимджонова Ш.Х., Нуралиев Н.А. ОЦЕНКА ПАРАМЕТРОВ КЛЕТОЧНЫХ ФАКТОРОВ РЕЗИСТЕНТНОСТИ ОРГАНИЗМА РАБОТНИКОВ ПРЯДИЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА	145
Нурматова Ф.Б., Мурадов К.И., Нурматова М.Б. ВЛАЖНОСТЬ ВОЗДУХА: ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ОРГАНИЗМ И МЕТОДЫ ЕЁ ИЗМЕРЕНИЯ	150
Расулов Ш.М., Тошпўлатов А.Ю. БРУЦЕЛЛЁЗ КАСАЛЛИГИНИНГ ТАРҚАЛГАНЛИГИ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	153
Садикходжаев С.Ш., Хакимова Р.А., Мамасолиев Н.С., Содиков У.Т. ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ ТУБЕРКУЛЕЗА У COVID - ИНФИЦИРОВАННОЙ ПОПУЛЯЦИИ ТРУДОСПОСОБНОГО ВОЗРАСТА	157

## NAMANGAN VILOYATI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA 5-7 SINIF O'QUVCHILARINING DARS JADVALINI GIGIYENIK BAXOLASH

Niyazova O.A., Salomova F.I., Qurbonkulov A.A.

## ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УЧЕБНЫХ РАСПИСАНИЙ 5 - 7-Х КЛАССОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Ниязова О.А., Саломова Ф.И., Курбонкулов А.А.

## HYGIENIC ASSESSMENT OF EDUCATIONAL SCHEDULES FOR GRADES 5-7 OF SECONDARY SCHOOLS IN THE NAMANGAN REGION

Niyazova O.A., Salomova F.I., Qurbonkulov A.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

*В настоящее время на фоне ухудшения состояния здоровья учащихся, изменения, которые происходят в современном образовании, обуславливают необходимость анализа учебного расписания и оценки его гигиенической рациональности. В данном исследовании для изучения учебной нагрузки средних классов общеобразовательных школ проводилась оценка показателей учебного расписания с основными требованиями и нормами. В результате исследования были определены наиболее типичные ошибки в построении расписаний, а также выявлена значительная доля нарушений в проанализированных расписаниях и учебных нагрузках.*

**Ключевые слова:** учебное расписание, утомление школьников, общеобразовательная школа, трудность учебных предметов, гигиеническая оценка.

*Currently, against the background of deteriorating health status of students, the changes that are taking place in modern education necessitate the analysis of the educational schedule and assessment of its hygienic rationality. In this study, to study the workload of middle classes in general education schools, the indicators of the educational schedule with basic requirements and norms were assessed. As a result of the study, the most typical errors in the construction of schedules were identified, and a significant proportion of violations in the analyzed schedules and teaching loads were identified.*

**Key words:** curriculum, fatigue of schoolchildren, secondary school, difficulty of academic subjects, hygienic assessment.

**Dolzarbligi.** Zamonaviy ta'limda bulayotgan tub o'zgarishlar darslarni tarkibini uzgarishi bilan bir qatorda, maktab fanlaridagi tuldirish bilan bog'lik uzgarishlarda, ularni murakkabligida, ukuvchilarni mashg'ulotlarda toliqib qolishida, yangi o'quv fanlarini kiritilishida, o'qitishning birlamchi xarakterida namoyon bo'lmoqda [2-5]. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning salomatlik xolatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish umumta'lim maktabining o'quv jarayonini boshqarishni avtomatlashtirishning asosiy va eng murakkab vazifalaridan biridir. U sezilarli mehnat intensivligi bilan ajralib turadi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat ta'lim muassasasining barcha bo'limlari hisobga olingan taqdirdagi na mumkin. Dars jadvallarini to'g'ri tuzilishi ukuv jarayonini samaradorligini belgilab beradi [1, 2].

Zamonaviy maktab ta'limining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning muvaffaqiyati darsda elektron ta'lim resurslaridan faol foydalanish orqali o'quv vaqti tanqisligi sharoitida o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga erishiladi [3, 4].

O'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilar salomatligini saqlashda dars jadvali katta rol o'ynaydi. Dars jadvali quyidagilarga bog'liq: yuqori ko'rsatkichlarni saqlash yoki uning pasayishi, o'quvchilar tanasining optimal ishlashi, haddan tashqari charchoqning mavjudligi yoki yo'qligi, maktab o'quvchilarining uyg'un rivojlanishi.

Zamonaviy maktab hayotining haqiqati shundan iboratki, dars jadvalini tuzib chiqishga ko'plab omillar, jumladan, o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining ushbu muammoga nisbatan imkoniyatlari va adekvat munosabati ta'sir qiladi.

**Tadqiqot ishining maqsadi.** Umumta'lim maktablarida o'rta sinf o'quvchilarining dars jadvalini Namangan viloyati misolida gigiyenik baxolash.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Dars jadvallari va o'quv yuklamlarini baxolashda uning sanitar-gigiyenik me'yorlariga mosligini aniqlash maqsad, bolalar va o'smirlar gigienasida qabul qilingan yondashuvga asoslanib, o'quvchilar aqliy ish qobiliyatini, ularning fanlarni murakkablik dinamikasiga mosligini namoyon qilishdan iborat. Olingan barcha ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasining SanPiN 0341-16 "Umumta'lim maktablarida o'qitishni sharoitlari va uni tashkillashtirishga bo'lgan sanitar-epidemiologik talablar"ga muvofiq taqqoslangan va baholangan.

Tadqiqot materiallari sifatida Namangan viloyatining umumta'lim maktablaridagi 50 dan ortiq o'rta sinf o'quvchilarining kunlik va haftalik o'quv yuklamlari taxlii qilingan va baxolangan.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Umumta'lim maktablarida fanni o'zlashtirishga ajratilgan o'quv rejasining soatlari me'yorida berilgan haftalik o'quv yuklamlari kattaligidan oshmasligi kerak. Haftalik o'quv yuklamlarining me'yorlari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**  
**Xaftalik o'quv yuklalarining maksimal kattaliklariga bo'lgan gigiyenik talablar**

Sinf	Maksimal ruxsat etilgan haftalik o'quv yuklama, akademik soatda
	6 kunlik o'qish davomida
5	32
6	34
7	35

Taxlil qilingan 5-sinf o'quvchilarining haftalik o'quv yuklamasi 100% holatda me'yoriga to'g'ri keldi. 6-sinf o'quvchilarining haftalik o'quv yuklamasi taxlil qilinganida esa - 99% holatda me'yoriga mos, faqat 1%ida darslarni 1-2 soatga oshganligini aniqlandi.

7-sinf o'quvchilari dars jadvali o'rganilganda, 98,3% me'yoriga mos kelganligi, faqat 2,6%ida 1-2 soatdan oshganligi aniqlangan.

Haftalik o'quv yuklalarini o'quv hafta davomiga to'g'ri taqsimlanishi kerak, bunda kun davomidagi ruxsat etilgan maksimal yuklama hajmi quyidagicha tuzilishi lozim:

- 5-6-sinflar uchun kuniga 6 dars bo'lishi;
- 7-sinflar uchun 7 darsdan oshmasligi kerak.


Fanlarning murakkablik shkalasi va o'quvchilarning aqliy ish faoliyatini dinamik o'ziga xosligini hisobga ol-

gan xolda dars jadvallarini gigiyenik baholanganida maktablarning 47 foizida oqilona tuzilmaganligi aniqlangan. Zamonaviy nuqtai nazarga ko'ra, dushanba - ta'lim faoliyatiga bosqichma-bosqich qo'shilish kuni, shuning uchun kun davomida murakkab fanlarning yig'indi bali yuqori bo'lmasligi kerak; ceshanba va chorshanba kunlari qiyinchilik shkalasi bo'yicha eng yuqori ball bo'lishi kerak; juma va shanba kunlari murakkab fanlarning yig'indi bali asta-sekin kamayishi kerak, chunki bu kunlarda ish qobiliyati kamayadi.

Kunlik dars jadvallari tuzilish jarayonida quyidagi ba'zi kamchiliklar aniqlangan: kunlik o'quv yuklamalarining maksimal bali haftaning dushanba kuniga - 19 foiz, shanba kuniga -16 foiz, 7 sinflarda esa dushanba va shanba kunlariga 12-14 foizdan to'g'ri kelgan.

O'quv fanlari bo'yicha ball to'plamining kunlik dinamikasi va uning talabalar faoliyatining fiziologik kunlik dinamikasiga mos kelishini tahlil qilinganida, 54% hollarda oqilona tarzda tuzilmaganligi aniqlandi.

Demak, dars jadvallarini taxlil qilish natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar aniqlangan: darsda murakkab fanlarning maksimal bali o'quvchining aqliy ish faoliyati past darajada bo'lgan vaqtiga to'g'ri kelgan: darslarning 1-soatiga - 28%; oxirgi soatlariga esa - 15% (ertalabki dars) to'g'ri kelgan; kunning birinchi va oxirgi soatlariga esa - 11% holatlarda to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Namangan viloyati umumta'lim maktablarida o'rta sinf o'quvchilarining dars jadvalida kun davomidagi darslarning yuqori murakkab bali**

Namangan viloyati umumta'lim maktablarida tanaffuslar davomiyligi o'rganilganda 98% holatda kichik tanaffuslar 5 daqiqa berilgan (10 daqiqa).

**Xulosalar.** Umumta'lim maktablarida dars jadvalini gigiyenik baholash shuni ko'rsatdiki, o'qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etishda yetarlicha e'tibor berilmagan. Baholangan ko'rsatkichlarga ko'ra, haftalik va kunlik dars jadvalining aksariyati, shuningdek, tanaffuslar davomiyligi gigiyenik me'yorlarga javob bermaydi. O'quvchilarda charchash holatini, turli kasalliklarni oldini olish va ularning salomatligini asrashda muhim o'rin tutgan yuqoridagi omillarni yaxshilash bo'yicha choralar ishlab chiqish zarur.

Dars mashg'ulotlarining davomiyligi o'rganilganida esa 100% holatlarda ularni me'yorida ekanligi, ya'ni 40-45 daqiqani tashkil etishi aniqlangan.

Darslar orasidagi tanaffusning davomiyligi kamida 10 daqiqa, uzoq tanaffus (2 yoki 3 darsdan keyin) - 20-30 daqiqa bo'lishi kerak. Bir katta tanaffus o'rniga 2 va 3-darslardan keyin har biri 20 daqiqadan ikkita tanaffusga ruxsat beriladi.

2-jadval.

*O'rta maktablarda darslar orasidagi tanaffuslarning me'yoriy davomiyligi, daqiqa*

No dars soatlari	Tanaffus davomiyligi, daqiqalarda	Tanaffus davomiyligi, daqiqalarda
1-2	10	10
2-3	20	10
3-4	20	30
4-5	10	10
5-6	10	10
6-7	10	10

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Александрова И.Э. Оптимизация гигиенической оценки учебного расписания в школе // Здоровье населения и среда обитания. 2015. № 8. С. 24-27.
2. Клеванский Н.Н. Основные концепции реализации задач формирования расписаний // Вестник Московского университета имени С.Ю. Витте. Образовательные ресурсы и технологии. 2014. № 2 (5). С. 9-21.
3. Саломова Ф. И., Ниязова О. А., Мирсагатова М. Р. Гигиеническая оценка расписания средних классов общеобразовательных школ. –Ижодкор ўқитувчи. Республика илмий услубий журнали Тошкент-2021. Б. 58-60

4. Санитарно-эпидемиологические требования к условиям и организации обучения в общеобразовательных школах: СанПиН №0341-16. Т., 2018. С. 37-38.

5. Niyazova, O. A. (2018). Study of the influence of physical education on the functional state of the organism of pupils of comprehensive schools. Medical Scientific Bulletin of Central Chernozemye (Naučno-medicinskij vestnik Central'nogo Černozem'â), (73), 54-58.

**NAMANGAN VILOYATI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA 5-7 SINIF O'QUVCHILARINING DARS JADVALINI GIGIYENIK BAXOLASH**

Niyazova O.A., Salomova F.I., Qurbonkulov A.A.

*Hozirgi vaqtda o'quvchilarning sog'lig'ining yomonlashuvi fonida zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim jadvalini tahlil qilish va uning gigiyenik oqilonaligini baholashni taqozo etmoqda. Ushbu tadqiqotda umumta'lim maktablaridagi o'rta sinflarning o'quv yuklamalarini o'rganish uchun asosiy talab va me'yorlar bilan ta'lim jadvalining ko'rsatkichlari baholandi. Tadqiqotlar natijasida rejalashtirishdagi eng tipik xatolar aniqlandi va tahlil qilinganda buzilishlarning katta qismi aniqlandi*

**Kalit so'zlar:** dars jadvali, o'quvchilarni charchashi, umumta'lim maktablari, o'quv fanlarining murakkabligi, gigiyenik baxolash.